

7-dars

Darsning mavzusi: Talaffuzi va yozilishi farq qiladigan undoshlar

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarda harf birikmalari, jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosi, bo'g'iz undoshi h va chuqur til orqa undoshi x ishtirok etgan so'zlarning imlosi ustida ishlash; unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga bo'lish va ko'chirishni bilish; talaffuz me'yorlariga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarning tabiatni sevish, tabiat ne'matlarini hurmat qilish, ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; davlat ramzlariga nisbatan hurmat va iftixor hissini shakllantirish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini, ijodiy matn tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, *"Diqqat bolalar!"* ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, texnik ilovalar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uy vazifasini tekshiriladi. Uyga berilgan 38-mashq o'quvchilar bilan birgalikda tekshiriladi, birgalikda tahlil qilinadi.

Husnixat daqiqasi:

Kichik “b” harfi usti halqali osti yarim oval shakldagi unsurlarga ajratilay bir butun shaklda yoziladi.

Daftarga bir qator kichik ‘b’ harfini va shu harf bilan bog‘langan so‘zlarni yozadilar; baho, bino, bobo, barg, baland

III. Mustahkamlash.

39 va 40-mashqlar og‘zaki bajariladi. H va x undoshlari ishtirok etgan so‘zlar ustida ishlanadi.

Dam olish daqiqasi

Yorug‘ berar derazam,
Oynalari sinmasin.
Ozoda turar har dam,
Chang va to‘zon kirmasin!

41-mashq yozma bajariladi. Nuqtalar o‘rniga x va h undoshlaridan mosi qo‘yilib, ko‘chirib yozish topshirig‘i beriladi.

Javobi: mehribon, hunar, xursand, jahon, xabar, mehnat, suhbat, hayvon, husnixat, hovli, olxo‘ri, xo‘jalik, halol.

Shu so‘zlar ishtirokida uchta gap tuzish va yozish talab etiladi.

42-mashqda x va h undosh ishtirok etgan so‘zlarning surati berilgan. O‘quvchilardan shu so‘zlarni to‘g‘ri yozish va gap tuzish talab etiladi.

Javobi: xo‘roz, xonqizi, hassa, hushtak, handalak, hamyon.

43-mashq yozma bajariladi. “*Hunarli kishi xor bo‘lmas*” mavzusida matn tuzib, undagi x va h undoshi ishtirok etgan so‘zlar belgilanadi.

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o‘quvchilar joriy darsdagi o‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

45-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.